

**BOLALARDA BILAK SUYAGI BOSHCHASINING ESKIRGAN CHIQISHLARINI
JIRROXLIK DAVOLASH NATIJALARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7883215>

Eranov Sherzod Nuralievich

Mustafayeva Kumush G'ayratovna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Mamadaliev Abbas Baxtiyorovich

Andijon davlat tibbiyot instituti, O'zbekiston Respublikasi, Samarqand sh

Annotation:

Ushbu tadqiqotning maqsadi bolalarda bilak suyagi boshchasining eskirgan chiqishlarini jarrohlik davolash natijalarini yaxshilashdir.

Materiallar va tadqiqot usullari. 2019-2022 yillar davomida bilak suyagi boshchasining eskirgan chiqishlari bilan kasallangan 83 nafar bemorni davolash natijalari tahlil qilindi. Tekshiruvdan o'tgan bemorlarning 51 nafari o'g'il bolalar bo'lib, ular foizda 61,4% va mos ravishda 32 nafar qiz bolalar 38,6% tashkil etdi. Bemorlarning yoshi 1 yoshdan 18 yoshgacha (o'rtacha yoshi 8,1 yil). Bemorlarda klinik va rentgenologik tekshirish usullari o'tkazilgan.

Natijalar. Bemorlarni uzoq muddatli davolash natijalarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, 1-guruh bemorlarida 31 (75,6%) bemorda a'lo va yaxshi natijalar, 7 bemorda (17,1%) qoniqarli, 3 bemorda qoniqarsiz natijalar (7,3%). Bemorlarning 2-guruhida 39 bemorda (92,9%) a'lo va yaxshi natijalar, 3 bemorda qoniqarli (7,1%), qoniqarsiz natijalar kuzatilmagan.

Xulosa. Fibroz o'zgargan bo'g'im kapsulasi bilak suyagi boshchasining eskirgan chiqishlarida jarrohlik davolash uchun uzuksimon boylamni tiklash (plastika) uchun loskut hosil qilish imkonini beradi va o'z navbatida, bilak boshchasini joyida tug'irlangan holatda ushlab turadi. Bemorlarni uzoq muddatli davolash natijalarini tahlil qilish jarrohlik davolash natijalarining 75,6% dan 92,9% gacha yaxshilanganligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *bilak suyagi boshchasining chiqishi, uzuksimon boylam.*

Аннотация:

Целью настоящего исследования – улучшение результатов хирургического лечения застарелых вывихов головки лучевой кости у детей.

Материалы и методы исследования. Проанализированы результаты лечения 83 больных, с застарелыми вывихами головки лучевой кости за 2019-2022 годы. Среди обследованных больных мальчиков было 51, что в процентном отношении составило 61,4%, а девочек - 32, соответственно 38,6%. Возраст больных составлял от 1 до 18 лет (средний возраст 8,1 лет). Были проведены клинические и рентгенологические методы исследования.

Результаты. Анализ отдаленных результатов лечения больных показало, что, по 1-группе больных отличных и хороших результатов отмечено у 31 (75,6%) больных, удовлетворительно у 7 больных (17,1%), неудовлетворительных результатов у 3 больных (7,3%). По 2-группе больных отличные и хорошие результаты у 39 больных (92,9%), удовлетворительно у 3 больных (7,1%), а неудовлетворительных результатов не наблюдалось.

Выводы. Фиброзно-измененная капсула сустава позволяет образовать лоскут для восстановления (пластики) кольцевидной связки при хирургическом лечении застарелых вывихов головки лучевой кости, а восстановление кольцевидной связки из собственной фиброзно-измененной капсулы сустава в свою очередь удерживает головки лучевой кости во вправленном положении. Анализ отдаленных результатов лечения больных показал, улучшение результатов хирургического лечения от 75,6% до 92,9%.

Ключевые слова: вывих головки лучевой кости, кольцевидная связка.

Annotation:

The aim of this study is to improve the results of surgical treatment of chronic dislocations of the radial head in children.

Materials and research methods. The results of treatment of 83 patients with chronic dislocations of the radial head for 2019-2022 were analyzed. Among the examined patients, there were 51 boys, which in percentage terms amounted to 61.4%, and 32 girls, respectively, 38.6%. The age of patients ranged from 1 to 18 years (mean age 8.1 years). Clinical and radiological research methods were carried out.

Results. Analysis of the long-term results of treatment of patients showed that, in the 1st group of patients, excellent and good results were noted in 31 (75.6%) patients, satisfactory in 7 patients (17.1%), unsatisfactory results in 3 patients (7.3%). In the 2nd group of patients, excellent and good results were observed in 39 patients (92.9%), satisfactory in 3 patients (7.1%), and no unsatisfactory results were observed.

Conclusions. The fibrous-modified joint capsule allows the formation of a flap for the restoration (plasty) of the annular ligament in the surgical treatment of chronic dislocations of the radial head, and the restoration of the annular ligament from its own fibrous-modified joint capsule, in turn, keeps the heads of the radius in the reduced position. Analysis of the long-term results of treatment of patients showed an improvement in the results of surgical treatment from 75.6% to 92.9%.

Keywords: *dislocation of the head of the radius, annular ligament.*

Dolzarbliqi. Bilak suyagi boshchasining eskirgan chiqishlari (BSBECh) og'ir patologiyalardan biri bo'lib, turli mualliflarning fikriga ko'ra, tirsak bo'g'imidagi barcha jarohatlarning 1,9-2,7% da uchraydi. Murakkab holatlarda bilak suyagi boshchasining chiqishi bo'g'imning biomexanikasini buzadi, bilak va tirsak suyaklarining turli xil deformatsiyalari, ba'zi hollarda ularning qisqarishiga olib keladi

[1,2]. BSBECh ko'pincha qo'lning va ayniqsa, tirsak bo'g'imining disfunktsiyasiga olib keladi. Bundan tashqari, BSBECh holatlarining 17% dan ortig'i tirsak bo'g'imining valgus va atipik deformatsiyasiga olib keladi [4]. Ushbu muammoni hal qilish jarrohlik amaliyot paytida uzuksimon boylamni tiklashdan iboratdir. Bilak suyagi boshchasining uzuksimon boylamini tiklashning turli usullari taklif etiladi. Shu bilan birga, ushbu usullarni amalga oshirish uzuksimon boylaminining avtoplastikasi uchun qo'shimcha kesmalar, operatsiyalarning yuqori travmatizmi, operatsiyadan keyingi reabilitatsiya davrining uzunligi, tirsak bo'g'imining funktsiyalarini tiklagandan keyin qoldiq asoratlarning paydo bo'lishi bilan amalga oshiriladi [3]. Shuning uchun BSBECh bilan og'rigan bemorlarni davolashda jarohatning davomiyligi, bolaning yoshi, tirsak bo'g'imining anatomik va rentgenologik xususiyatlariga qarab yondashuvni farqlash kerak [1,5].

Maqsad: bolalarda bilak suyagi boshchasining eskirgan chiqishlarini davolash natijalarini yaxshilash.

Materiallar va usullar. RITOIATM Samarqand filialida bolalar shikastlari oqibatlarini bo'limida 2019-2022 yillarda bilak suyagi boshchasining eskirgan chiqishlari bilan 83 nafar bemor jarroxlik usulda davolangan. Tekshiruvdan o'tgan bemorlarning 51 nafari o'g'il bolalar bo'lib, ular foizda 61,4% va mos ravishda 32 nafar qiz bolalar 38,6% tashkil etdi. Bemorlarning yoshi 1 yoshdan 18 yoshgacha (o'rtacha yoshi 8,1 yil). Shikastlanishning asosiy sababi 58 (69,9%) bemorda travmatik (sakrash yoki balandlikdan yiqilish) va 25 (30,1%) bemorda xech narsa bilan bog'liq bo'lmagan sabablar bo'lgan. Bemorlarning kasalxonaga tashriflari tahlili shuni ko'rsatdiki, ko'pincha bemorlar jarohatdan keyin 6 oygacha murojaat qilishgan. Bizning materialimiz orasida ular shikastlanish vaqtini ko'rsatishi mumkin bo'lgan 58 bemorning 26 tasini (44,8%) tashkil etdi (jaroxatning davomiyligi va sababini ko'rsata olmagan 25 bemor bundan mustasno). 6 oygacha bo'lgan bemorlarni 16 (27,6%), 6 oydan 1 yilgacha 22 (37,9%) bemor, 12 (20,7%) bemor jarohatdan keyin 1 yildan 3 yilgacha va 8 (13,8%) bemor 3 yildan ortiq muddatda murojaat qilgan.

Bemorlarga quyidagi turdagi jarrohlik operatsiyalari o'tkazilgan: bilak suyagi boshini ochiq joyiga solish, cho'zilgan bo'g'im kapsulasini gofrirovka shaklida uzuksimon boylam bilan tikish (nazorat guruhida 41 bemor) va bilak suyagi boshchasini ochiq joyiga solish, uzuksimon boylam kapsuloplastikasi bilan (asosiy guruhning 42 bemori) (1-jadval).

1-jadval.

Bemorlarni jarrohlik davolash turlari bo'yicha taqsimlash (n = 83)

Jarrohlik davolash turi	abs	%
Bilak suyagi boshchasini ochiq joyiga solish, cho'zilgan bo'g'im kapsulasini gofrirovka shaklida uzuksimon boylam bilan tikish (nazorat guruhi)	41	49.4
Bilak suyagi boshchasini ochiq joyiga solish, uzuksimon boylam kapsuloplastikasi bilan (asosiy guruh)	42	50.6
Jami:	83	100%

Natijalar: BSBEChni jarrohlik davolashning uzoq muddatli natijalarini o'rganishda tirsak bo'g'imidagi funktsiyani ob'ektiv baholash uchun ball ishlab chiqilgan. Yelka-bilak bo'g'imining bo'g'im oxirlari nisbati, tirsak bo'g'imi harakatlarining amplitudasi, bilakning rotatsion harakatlari, qo'lning o'qi hisobga olingan. Shkalaning har bir bo'limi uchun bo'g'im holatiga baho berildi va tegishli ballar qo'yildi. **16-20 ball** - a'lo va yaxshi natijalar, **12-15 ball** - qoniqarli natijalar, **8-11 ball** - qoniqarsiz natijalar.

Bemorlarni uzoq muddatli davolash natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, 1-guruh bemorlarida 31 (75,6%) bemorda a'lo va yaxshi natijalar, 7 bemorda (17,1%) qoniqarli, 3 bemorda (7,3%) qoniqarsiz natijalar qayd etilgan. Bemorlarning 2-guruhida 39 bemorda (92,9%) a'lo va yaxshi natijalar, 3 bemorda qoniqarli (7,1%), qoniqarsiz natijalar kuzatilmadi (2-jadval).

2-jadval.

Bolalarda BSBECh bilan og'rigan bemorlarning jarrohlik davolashning qiyosiy natijalari

Operatsiya turlari	Natijalar			
	A'lo	Yaxshi	Qoniqarli	Qoniqarsiz
Nazorat guruhi				
Bilak suyagi boshchasini ochiq joyiga solish, cho'zilgan bo'g'im kapsulasini gofirovka shaklida uzuksimon boylam bilan tikish (nazorat guruhi)	12 (21-25)	19 (16-20)	7 (11-15)	3 (11 dan kam)
Asosiy guruh				
Bilak suyagi boshchasini ochiq joyiga solish, uzuksimon boylam kapsuloplastikasi bilan (asosiy guruh)	16 (21-25)	23 (16-20)	3 (11-15)	0 (11 dan kam)

Klinik misol. Bemor S., 9 yosh. Bilak suyagi boshchasining eskirgan chiqishi (1-rasm). Jarohatning davomiyligi 6 oy. Yashash joyida unga konservativ davo ko'rsatilgan. Tekshiruvda bilakning valgusli deformatsiyasi, tirsak bo'g'imining ichki yuzasida bilak suyagi boshchasining chiqib turgan boshchasi paypaslanadi, u joyiga bormaydi va chiqib turgan joyda mobilizatsiyalashgan. Rotatsion harakatlari 150°, tirsak bo'g'imida bukish 90° va yozish 150°. O'ng bilak suyagi boshchasini ochiq joyiga solish va uzuksimon boylam kapsuloplastikasi amaliyoti o'tkazilgan. Davolash natijasida bilak suyagi boshchasi joyida, tirsak bo'g'imining funktsiyasi tiklangan. Davolash natijasini baholash - 20 ball (a'lo).



1-rasm. Bilak suyagi boshchasining eskirgan chiqishi bilan og'rigan 9 yoshli bemor S. ning tirsak bo'g'imi rentgenogrammasi: a - davolashdan oldin, b - davolash paytida, v - bir yildan keyin.



2-rasm. Bemor S., 9 yosh, bilak suyagi boshchasining eskirgan chiqishi bilan, bir yildan keyin funktsional natija.

Shunday qilib, bilak suyagi boshchasining eskirgan chiqishida, uzuksimon boylam shikastlanishi uning cho'zilishi, xattoki yirtilishi mumkin. Bu, albatta, shikastlanish mexanizmiga, davriga va bemorning yoshiga bog'liq. Ko'p hollarda yirtilgan boylamning interpozitsiyasi yuzaga keladi, bu esa, o'z navbatida, boshchani joyiga qaytarishga imkon bermaydi. Murakkab holatlarda, interpozitsiyaga qo'shimcha ravishda, kapsulaning o'zida chandiqli o'zgarish mavjud bo'lib, u bilak suyagi boshchasini qisman yoki to'liq qoplash bilan namoyon bo'ladi.

Xulosa. Fibroz o'zgargan bo'g'im kapsulasi bilak suyagi boshchasining eskirgan chiqishlarida jarrohlik davolash uchun uzuksimon boylamni tiklash (plastika) uchun loskut hosil qilish imkonini beradi va o'z navbatida, bilak boshchasini joyida tug'irlangan holatda ushlab turadi. Bemorlarni uzoq muddatli davolash natijalarini tahlil qilish jarrohlik davolash natijalarining 75,6% dan 92,9% gacha yaxshilanganligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT:

1. Ходжанов И.Ю., Солдатов Ю.П., Байимбетов Г.Дж., Эдилов У.А. Наш опыт лечения застарелых вывихов головки лучевой кости у детей // Ж. Гений Ортопедии, том 27, № 1, 2021 г. С. 17-23.

2. Хужаназаров И.Э., Ходжанов И.Ю. Основные тенденции при лечении посттравматических деформаций локтевого сустава у детей (обзор литературы) / Журнал клинической и экспериментальной ортопедии им. Г.А. Илизарова № 1, 2015 г. С. 75-83.

3. Эранов Ш.Н., Пардаев С.Н., Жураев И.Г., Шопулатов И.Б., Холхужаев Ф.И. К вопросу хирургического лечения застарелого вывиха головки лучевой кости у детей // Вопросы науки и образования. 2019. №26 (75). 58-69.

4. Bae DS, Shah AS, Kalish LA, et al. Shoulder motion, strength, and functional outcomes in children with established malunion of the clavicle. *J Pediatr Orthop*. 2013;33(5): C. 544-550.

5. Belangero WD, Livani B, Zogaib RK. Treatment of chronic radial head dislocations. *International Orthopedics*. 2007;31(2):151-154.

6. Clare D.J., Corley F.G., Wirth M.A. Ipsilateral combination Monteggia and Galeazzi injuries in an adult patient: a case report // *J. Orthop. Trauma*. 2002. Vol. 16, No 2. C. 130-134. DOI: 10.1097/00005131-200202000-00011